

MUSTAQILLIK YILLARIDA NAMANGAN VILOYATI
ZIYORATGOHLARI TASNIFI

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich
Universitiy of business and science o'qtuvchisi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada o‘rganilayotgan mavzu Mustaqillik yillarida Namangan viloyati ziyoratgohlari tasnifi bo’lsada maqolada Namangan viloyatining turizmi salohiyati va O’zbekiston Respublikasida turizm rivojiga qo’shgan hissasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Kalit so’zlar: Ziyoratgoh, diniy turizm, ziyoratchilar, Qubbat - ul Islomi Andijon, Qizmozor, Childuxtaron, Bibi Ubayda, Beshik Mozor, Suloton Ena, Tuzluq Momo, Sulton Uvays Qaraniy, Buvi Naima, Namangoniy Eshoniy, translyator, insonlar qadamjo, Buloq suvi, ziyoratgoh tuprog‘i, tosh, g‘or, Ruhiy madad, taskin beruvchi, Shayx Umar Vali ziyoratgohi, Abdurahim devona buva xonaqohi, Bobo Yaxso’z.

O’zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki onazaminimizda butun dunyoga ma’lum va mashhur bo’lgan ajdodlarimiz mangу qo’nim topgan. Ular qoldirgan boy moddiy va ma’naviy merosga xalqaro miqyosda qiziqish juda katta deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev¹. Farg’ona vodiysi arxeologik turizmni ham rivojlantirish imkonи mavjud mintqa hisoblanadi. Arxeologik yodgorliklar o’tmish bilan bugungi kunni bog’lovchi ko’prik hamda qadim o’tmishning tilisiz guvohidir. Arxeologik yodgorliklar milliy g’urur va iftixorni shakllantiruvchi mezon sifatida e’zozlab, insonlarning vatanparvarlik tuyg’ularini yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Muqaddas joylarni ziyorat qilish ham sayohatning bir turi bo’lib, u Jahon turizm tashkiloti tomonidan “diniy turizm” deb tan olingan. Turizmning ushbu turi bo’yicha sayohatga chiquvchilar “ziyoratchilar” deb ataladi. Sayohatga ehtiyoj faqat ma’lum dinga e’tiqod qilish natijasida paydo bo’ladi va dindorlarning bu ehtiyojlarini qondirish maqsadida muqaddas qadamjolarga sayohatlar uyuşhtiriladi².

Ziyorat turizmi sayyohlik tarmoqlari ichida serdaromad yo’nalish hisoblanadi. Mazkur tarmoq taraqqiyotining jahon tajribasiga e’tibor beradigan bo’linsa, ziyorat turizmi ko’proq ichki turizmning muhim yo’nalishi sifatida qaraladi.

Ziyorat turizmi haj maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turidan biroz farq qiladi. Jumladan, haj marosimlari yilning ma’lum oylarida amalga oshirilsa, ziyorat turizmi mavsum tanlamaydi. Ziyorat turizmini rivojlantirishda diniy bayramlar va marosimlar ham muhim rol o’ynaydi. Ziyorat safarlariga ko’proq 2–5 nafar yoki undan

¹ Туризмни янада ривожлантириш масалалари мухокама қилинди // Marifat. 2017 йил 4 ноябрь

² Христов Т. Религиозный туризм Учеб пособие для студентов. – М., 2003. – С. 36.

ko'p guruh bo'lib sayohatga chiqiladi. Ziyorat turizmi sayyohning xohishiga qarab, hatto bir necha oyga cho'zilishi ham mumkin bo'lgan keng qamrovli turizm turi hisoblanadi. Haj maqsadida amalga oshirilgan sayohatdan ziyorat turizmi o'rtasida servis xizmatlari darajasidagi talablarda, ekskursiya yo'naliшlarida, safarlarning cheklangan sanalarida, yosh va mijozlarning ijtimoiy kategoriyasida farqlar mavjud.

Ziyorat turizmi doirasida sayohatga chiqayotgan sayyoхlar ahloqiy qarashlari bilan ham tanish bo'lishlari shart. Ziyorat turizmining boshqa turizm turlaridan farqli tomoni, u o'yin-kulgili dasturlardan mutlaq holi bo'lib, shahar shovqini, oilaviy muammolardan charchagan ziyoratchilarni ruhiy sokinlik istab amalga oshirgan maqsadli faoliyati natijasida vujudga keladi. Shuningdek, diniy qadriyatlarni, insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida, sayyoхlar ma'nan va ruhan poklanish bilan bir qatorda, o'zaro mehr-oqibat, rahm-shafqat hamda dinlararo bag'rikenglik tuyg'ulari mustahkamlanadi³.

O'zbekiston Respublikasida ichki turizm turlari ichida ziyorat turizmi yetakchilik qilmoqda⁴. Prezident Sh. M. Mirziyoyev ayrim davlatlar turistik brendlar yaratish uchun katta mablag'lar sarflalayotgan bir vaqtda, O'zbekiston Respublikasidagi mashhur ziyoratgohlar turizm brendi vazifasini bajarishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan. Farg'ona vodiysi ham ziyorat turizmini rivojlantirish resurslariga ega mintaqaga hisoblanadi. Farg'ona vodiyining Namangan shahri Namangoniy Eshoniy⁵, Andijon shahri esa "Qubbat - ul Islomi Andijon" deb sharaflanishi ham ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish Farg'ona mintaqaviy inspeksiyasi ma'lumotlariga qaraganda Andijon viloyatida 74 ta, Namangan viloyatida 17 ta, Farg'ona viloyatida esa 254 ta ziyoratgohlar davlat muhofazasiga olinganligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston musulmonlar idorasi tarkibiga kiruvchi ziyoratgohlar soni Andijonda 38 ta, Namanganda 38 ta, Farg'onada esa 120 ta bo'lib, bugungi kunda eng ko'p sayyoхlarni qabul qilayotgan Samarqandda 66 ta, Buxoroda 34 ta va Xorazmda esa 34 ziyoratgohlar ro'yxatga olinganligi Farg'ona vodiyida ziyorat turizmi salohiyati nisbatan katta ekanligini ko'rsatdi.

Biroq, Farg'ona vodiyidagi mavjud ziyoratgohlar Samarqand, Buxoro va Xorazm ziyoratgohlari singari ulug'vor bo'lmanligi, turizm infratuzilmasi shakllantirilmaganligi, turistik axborotni tanqisligi kabi omillar ziyorat turizmi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Izlanishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, vodiydagи ziyoratgohlarning asosiy tariqat ulomolari nomi bilan bog'liq bo'lganligi, tabiiy shart-sharoit nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda ziyoratgohlar u darajada ulug'vor qilib barpo etilmagan.

Ziyorat turizmi doirasida asosan ayollarni sayohatga chiqishini inobatga olgan

³ Сўфиев Ў. Сўхнома. – Фарғона, 2013. – Б. 105.

⁴ Левтеева Л., Турсуналиев К. Музеология (Наука о музейном деле). – Ташкент, 2008. – С. 283.

⁵ Жабборов А. Наманган вилояти: ихчам маълумотлар тўплами. – Наманган, 2011. – Б. 107.

holda, Farg'ona vodiysidagi ayollar nomi bilan bog'liq Qizmozor, Childuxtaron (Namangan viloyati) Bibi Ubayda, Beshik Mozor(Farg'ona viloyati) Suloton Ena, Tuzluq Momo (Andijon viloyati) ziyoratgohlari ham obodonlashtirildi. Jumladan, 2016 yilda homiylik mablag'lari hisobidan Farg'ona viloyatida Buvayda tumanida joylashgan Bibi Ubayda ziyoratgohida turizm infratuzilmasini yaxshilash maqsadida suvinerlar savdo shohobchalari tashkil etildi. Ziyoratchilarga qulayliklar yaratish maqsadida namozxona tashkil etilgan bo'lsa-da, respublika doirasida sayyoohlar oqimi sezilarli darajada oshmadi. Namangan viloyatidagi Qizmozor va Childuxtaron ziyoratgohlari Chortoq tumanida joylashgan Sulton Uvays Qaraniy va Buvi Naima ziyoratgohi ham obodonlashtirildi. Ushbu ziyoratgoh so'fiylikdagi Uvaysiya tariqatining asoschisi Uvays Qaraniyning onasi nomi bilan bog'liq⁶ bo'lib mustaqillik yillarida Sulton Uvays Qaraniy xazratlarining aholi uchun qulflangan eshiklari musulmonlar uchun ochildi. Bu o'z navbatida ziyoratgohga Afg'oniston, Eron, Arabiston va qo'shni davlatlardan ko'plab ziyoratchilar oqimini oshishiga kelishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasida ichki turizm turlari ichida ziyorat turizmi yetakchilik qilmoqda. Farg'ona vodiysi ham ziyorat turizmini rivojlantirish resurslariga ega mintaqa hisoblanadi. Farg'ona vodiysining Namangan shahri Namangoniy Eshoni, Andijon shahri esa "Qubbat - ul Islomi Andijon" deb sharaflanishi ham ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish Farg'ona mintaqaviy inspeksiyasi ma'lumotlariga qaraganda Andijon viloyatida 74 ta, Namangan viloyatida 17 ta, Farg'ona viloyatida esa 254 ta ziyoratgohlar davlat muhofazasiga olinganligi qayd etilgan. Biroq, PhD doktori B. Kamolovning tadqiqot natijasida, Namangan viloyatida diniy ahamiyatga ega bo'lgan ziyoratgohlar sonini 55 ekanligini qayd etgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, dastlab ziyorat turizmining muhim tarmoqlaridan biri haj turizmi ham yo'lga qo'yildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 maydagi 165-sonli "Movorounnahr" musulmonlar diniy boshqarmasining O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini Saudiya Arabistoniga haj qilishini tashkil etishga yordam berish to'g'risidagi murojaati" munosabati bilan Farg'ona vodiysi viloyatlarida tashkiliy masalalar yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, tibbiy ko'rikdan o'tish va zarur mablag'larni chet el valyutasiga ayirboshlashda ziyoratchilar ko'plab muammolarga duch kelgan.

Umuman olganda, zamnaviy globallashuv jarayonlari kuchli ketayotgan bugungi kunda ziyoratgohlar quyidagi funksiyalarni bajarmoqda:

1. *Birlashtiruvchi.* Bunda an'anaviy xo'jalik tarzi bilan shug'ullanuvchi va umumiyl e'tiqodga ega aholi haftanining ma'lum kunlarida ziyoratgohda yig'ilib, turli marosimlarni bajaradi. Ziyoratchilar turli millat, turli jins va turli yosh vakillaridan

⁶ Абдулахатов Н. Муқаддас қадамжолар туркумидан. Садқак ота зиёратгоҳи. - Фарғона, 2011. – Б. 48.

iborat bo‘lib, ular ziyorat qilish, niyat hamda istaklariga erishish, dardlariga shifo topish kabi ziyoratgoh bilan bog‘liq qarashlar, e’tiqod va ixlos birlashtirib turadi.

2. *Mediatorlik*. Qadimdan ziyoratgohlar ilohiy qudrat manbai hisoblanib, insonlar va Xudo o‘rtasida aloqachilik vazifasini bajaruvchi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Islom dinida Makka shahridagi Ka’batulloh Allohga eng yaqin joy hisoblanadi, masjidlar esa “translyator” vazifasini bajaradi. Shu sababli, ziyoratgohlar hududidagi masjidlar qurilishiga alohida e’tibor beriladi. Masjidda o‘qilgan duo mustajob bo‘ladi, degan xalqona qarashlar zamirida ziyoratgohga tashrif buyuruvchilar namoz o‘qib, niyat qilishga alohida e’tibor qaratadilar.

3. *Kommunikativ*. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar diniy bilimlarni oshirish hamda diniy sohaga oid savollariga javob beradigan markaz vazifasini ham bajargan. Ayniqsa, ayollarning ziyoratgohlarga ko‘p tashrif buyurishining sabablaridan biri, ayollar o‘z diniy dunyoqarishini oshirish uchun ham tashrif buyurishi bilan bog‘liq. Ayollar o‘zlarini qiyayotgan savollarga ziyoratgohda faliyat yurituvchi shayx va imomlardan javob olishga harakat qiladi. Zangiota ziyoratgohida radiomikrofon orqali muntazam diniy mavzulardagi ma’ruzalarning berib borilishi ziyoratgohlarning kommunikativ vazifasini yanada kuchaytiradi.

4. *Davolovchi*. Qadimdan insonlar qadamjo va ziyoratgohlarning mazkur xususiyatidan keng foydalanib kelganlar. Buloq suvi, ziyoratgoh tuprog‘i, tosh, g‘or va daraxtlarning shifobaxshligiga ixlos bilan qarab, turli marosimlar bajarilgan. Qadamjo va ziyoratgohlarga davo istab boruvchilar ruhan tayyorgarlik ko‘rib keladi. Bu esa o‘z navbatida, inson psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatib, insonda o‘ziga xos ishonchni hosil qiladi. Hozirgi kunga qadar befarzandlik kasaliga davo istab, ziyoratgohlarga keladigan ziyoratchilar tashkil etadi. Buloq suvlarini turli kasallikkarga shifo sifatida iste’mol qilish an'anaviy odatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ziyoratgohlardagi o‘ziga xos biomaydon ham turli kasallikkarga da’vo hisoblangan. Ohangaron tumanidagi Parpi ota ziyoratgohida hayvonlarni ham davolash maqsadida olib kelingan.

5. *Himoya qiluvchi*. Mahalliy aholi orasida kenga tarqalgan an'anaga ko‘ra, ziyoratgohlar odamlarni turli baloyu-ofatlardan himoya qiluvchi, boshiga ish tushganda yordam beruvchi xususiyatga ega ekanligiga ishonch kuchli bo‘lib, ayniqsa, avliyolar bilan bog‘liq ziyoratgohlar ushbu vazifani ham bajaradi. Jumladan, avliyolar qabri qo‘yilgan mozorda qabr azobi yengil bo‘ladi, deb qaralganligi bois ziyoratgohlar atrofida qabristonlar vujudga kelgan. Masalan, Zangiota va Ervalibobo ziyoratgohlari ushbu jihatlari bilan ham ulug‘langan.

6. *Ruhiy madad, taskin beruvchi* – qadamjo va ziyoratgohlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, insonlar ikki holat, ya’ni tushkunlik, boshiga kulfat tushganda hamda xursandchilik va ulkan yutuqlarga erishgan paytda ziyoratga borishi kuzatilgan. Globallashuv jarayonlarining kuchayishi va hayotiy jarayonlarning

tezlashib borishi insonning ruhiy zo‘riqishiga olib kelmoqdi. Kuchli zo‘riqishlar insonda yolg‘izlik va sokinlik sari intilishni vujudga keltiradi. Ziyoratgohlarda olib borgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ziyoratchilarining 85 foizi ziyoratdan so‘ng ruhiy yengillikka erishganini ta’kidladilar. “Xursand bo‘lsang, bozorga, xafa bo‘lsang, mozorga bor” maqlida ham mozorga borish insonning ruhiy tushkunlik holatiga taskin berishi zaminida paydo bo‘lgan.

7. *Tabiiy qo‘rixona.* Etnoekologik, ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonlari ta’siri ostida ekologik muammolar kuchayib bormoqda. Jumladan, urbanizatsiyalashuv oqibatida tabiiy landshaftlar soni qisqarib bormoqda. Endilikda ziyoratgohlar hududi tabiiy ekotizim saqlanib qolgan qo‘riqxona vazifasini bajarmoqda. Ayniqsa, ziyoratgohlarga nisbatan asrlar davomida shakllangan hurmat natijasida bu yarlarni payhon qilish va o‘simplik dunyosiga zarar yetkazish gunoh hisoblanganligi sababli qadimi daraxtlar, o‘ziga xos o‘simplik dunyosi, buloq suvlari hamda muqaddas baliqlari ziyoratgohlarda yaxshi saqlanib qolgan. Shu bilan birga, ziyoratgohlarda keng miqyosda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarida ham ularning tabiiy ko‘rinishi, flora va faunasiga zarar yetkazmaslikka alohida e’tibor qaratish kerak. Masalan, Bo‘stonliq tumani Bog‘iston qishlog‘ida joylashgan Shayx Umar Vali ziyoratgohida ham olib borilayotgan qurilish ishlarida ming yillik archa daraxti saqlab qolindi.

Globallashuv jarayoni kuchli kechayotgan bugungi kunda ziyorat va turizm o‘rtasidagi farqlar ham qisqarib ketdi. Chunki, ziyorat va uning bugungi kundagi ko‘rinishi o‘rta asrlarda amalga oshilgan ziyoratdan keskin farq qilmoqda. Ikkinchidan, “ziyorat” tushunchasi zamonaviy kontekstda keng foydalanilmoqda, ya’ni mashhur insonlar hamda urush qatnashchilari qabrlari, mashhurlarning rezidensiyalari va ularning dafn qilingan joylarini ko‘rish kabi yangi an'analar paydo bo‘lmoqda.

Bugun ushbu yurtda taraqqiyotning yangi bosqichga ko‘tarilgan davri, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat barpo etilmoqda. Shuning uchun har bir fuqaroda o’zi yashayotgan shaharu qishloq, ovul va maskanlarda O’zbekistonning betakror va maftunkor tabiatni hamda mehr-muruvvatli mehnatkash xalqning bunyodkorlik jasorati mujassamlashgan. Mehnatkash xalqning tarixan tarkib topgan ma’naviy qadriyatlari o’laroq, ushbu maskanlarda ko’plab tarixiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar qad rostlaganki, ular aholining ma’naviy madaniyati, bunyodkorlik fazilatlaridan darak berib turadi. Shunday tarixiy yodgorliklardan biri Namangan viloyati Uychi tumani Fayzobod qishlog‘idagi Abdurahim devona buva xonaqohidir.

Aslida bu turdagи inshootlar, mintaqada XII–XV asrlardan boshlab Rim me’morchiligi asosida, yog’och ishlatmasdan, chiroyli, tomi yarim doira shaklida, pishiq g’ishtdan yevropacha uslubda ibodatxona va masjidlar qurila boshlangan. Ushbu an’ana me’morlar tomonidan davom ettirilib, shunday gumbaz ko‘rinishidagi obida 1720–1730 yillar oralig‘ida Abdurahim devona laqabli kishi tomonidan,

Fayziobod mahallasining qoq o'rtasida qurilgan. Uning asosiy jihatni gumbazli tomi bo'lganligi sababli, mahallaga "Gumbaz" nomi berilgan.

Abdurahim aslida devona bo'lmay, aslida Namanganlik Salimboyning farzandi bo'lgan. Salimboy esa namanganlik ko'zga ko'ringan ma'rifatpar-var, mudarris, Olloh yo'lida xizmat qiluvchi Xoja Amin bilan din va ma'rifat yo'lida munosabatlar o'rnatgan edi. Kunlardan bir kun Salimboy o'g'li Abdurahimni Namanganga borishini va u yerda Xoja Aminga uchrab, u kishiga shogird bo'lib tahsil olishini aytadi. O'sha paytda Abdurahim 16 yoshda bo'lib, uning hali xat savodi chiqmagan edi. Abdurahim Namangan va Namangan oralig'ida bir devona kishiga duch keladi. Abdurahimning devonaga rahmi kelib, unga o'zining yangi kiyimlarini beradi, devonaning kiyimini esa o'zi kiyadi va ular o'z yo'llarida davom etadilar. Abdurahim Namanganga, Xoja Aminning uyiga kelganida Xoja shogirdlariga "ko'chaga chiqinglar, eshik oldida bir mehmon bor, uni ichkariga taklif qilinglar", deydi. Shogirdlari ko'chaga chiqishsa, hyech kim yo'q, faqat bir devona o'tirganini ko'rib, qaytib uyga kiradilar. Xoja Amin esa "bizga o'sha devona kelgan, u kishini olib kiringlar", – deydi. Shogirdlari ustozining xohishlarini bajarib, Abdurahim devonani ichkariga taklif qiladilar. Shu paytdan boshlab Abdurahimda "devona" laqabi paydo bo'lgan. Abdurahim bir necha yil Xoja Amin tarbiyasida bo'lib, zamonasining yetuk bilimli kishisi bo'lib voyaga yetadi.

Abdurahim devona ustozni Xoja Amindan din va ma'naviyat bobidagi ilmlarni egallab bo'lgach, Namangan shahrining Sirdaryoga olib boradigan yo'lida qarorgoh bunyod ettiradi. Bu joy hozirgi Uychi tumani Jiydakapa qishlog'i yaqinidagi Namangan tumaniga qarashli Eshobod qishlog'i hududi-ga to'g'ri keladi. Ammo, u yerda uzoq yashay olmaydi, chunki, Xoja Aminning Jiydakapa va uning atrofi mahallalaridagi muridlari Abdurahim xonadonini bosib o'tib, u kishini ziyyarat qilishga xijolat tortadilar. Bu holatga befarq bo'lman Abdurahim joy izlab, hozirgi Uychi tumani Fayziobod qishlog'iga keladi. Abdurahim devona Fayziobodga kelganida aholi, asosan, Qizbuloq atrofida yashar edi. Abdurahim esa o'ziga yer qidirib, qishloq markazini tanlaydi va qurilish boshlaydi.

Binoning bosh quruvchisi Namanganlik usta Abdurasul bo'lib, u kishi bilan 9 nafar devona laqabli quruvchilar qatnashgan. Abdurasul ham qish-loq aholisiga ancha taniqli kishi bo'lgan. Ularning o'g'illari Hakimjon, Hamidxon, Qosimjon va Abdullohlar qishloqning ziyoli insonlari edi.

Bino bitkazilgach, atrofida suv tanqisligi tufayli Abdurahim Chortoqning Kushan qishlog'iga borib, Chortoqsoyning boshlanishidan hashar yo'li bilan ariq qazdirib, suv olib kelgan.

Abdurahim devona o'zining "Gumbaz"ida bir necha yil yashab, o'sha yerda vafot etgan. U xalqparvar inson bo'lib, bayram kunlari hamda marosim-larda halim, jilon va sumalak tayyorlatib, xalqqa ularshgan.

Abdurahim devona Gumbazi va maqbarasi qishloqning muqaddas tarixiy

yodgorliklaridir. U 1990 yilda ma'rifatparvar va tashkilotchi inson Ziyovuddin Xo'jaev, qishloq fuqarolar yig'ini raisi Abdullajon Mirzaev va jamoa raisi Zokirjon Qutbiddinovlar tashabbuslari bilan ta'mirlangan. Unga qo'shimcha ravishda 1990 yilda masjid qurildi va 1998 yilning oxirida u Jome masjidi maqomini oldi.

Abdurahim devona gumbazi chiroyli, jozibali va hashamatli qurilgan bo'lib, so'fi azon aytadigan minora mezonlari, savod chiqaradigan hamda talabalar turadigan xonalar bo'lган. Masjid yonida Abdurahim devona va boshqa din ulamolarining qabrlari mavjud bo'lib, uning atrofi qabristondan iborat.

Abdurahim devona (qisqacha qilib "Devona buva" maqbarasi deb yuritiladi) mahallaning ko'rki bo'lib, u Respublika tarixiy yodgorliklari ro'yxatidan o'rın olgan.

Nanay qishlog'idagi qabristonda "Bobo Yaxso'z" nomli ziyyaratgoh mavjud bo'lib, hozirda Yangiqo'rg'on tumani obodonlashtirish bo'limi tasarrufiga olingan.

Rivoyatga ko'ra, Bobo Yaxso'z nomli shaxs bu yerlarga islom dinini yoyishga kelgan avliyosifat 3 nafar odamdan eng yoshi ulug'i bo'lган ekan. Og'a-inilarning yoshi ulug'i Bobo Yaxso'z bo'lib, Nanay qabristoniga dafn etilgan, o'rtanchasining nomi Podshoh Ota esa hozirgi Qirg'iziston hududidagi tog'lar orasiga dafn etilgan bo'lib, ziyyaratgoh nomi ham Podshoh Ota deb nomlangan, qadimdan bu yerga juda ko'plab ziyyoratchilar muttasil kelib turishadi. Avliyolarning eng kichigining nomi Buva Ota buva nomlanib, uning qabri ham Qirg'iziston hududida joylashgan va u yerlar ham ziyyaratgohga aylantirilgan.

Faqat Bobo Yaxso'z buvaning qabri O'zbekiston hududida qolgan bo'lib, hozirda Nanay qishloq qabristoni shu nom bilan ataladi. U kishining qabrida qadimiy xarsang tosh mavjud bo'lib, ushbu qabrtoshda bu yerda yotgan odam haqiqatdan ham Bobo Yaxso'z ekanligini tasdiqllovchi arabcha yozuvlar bor. Bundan tashqari bu ziyyaratgoh O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi, Namangan viloyati o'lkani o'rganish muzeyi, Namangan viloyati ziyyaratgohlari va "Oltin meros" xalqaro hayriya jamg'armasi Namangan viloyati Boshqarmasi ro'yxatlaridan o'rın olgan. Lekin "Bobo Yaxso'z" ziyyaratgohining hozirgi holati talab darajasida emas, kelgan ziyyoratchilarga xech qanday sharoit yaratilmagan, u kishining qabri tashlandiq holatga kelib qolgan. Ziyyoratchilardan tushgan mablag' Yangiqo'rg'on tumani obodonlashtirish bo'limi hisobida qolib ketadi. Kelgan ziyyoratchilarga bu yerning tarixi haqida xech qanday ma'lumot berishning iloji yo'q.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги ПФ 4947-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш

тантанали маросимиға бағищланған Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

4. Мирзиёев Ш. М. Таңқидий таҳлил, қатъий – тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий – иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланған иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағищланған Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 56 б.

5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

6. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

7. Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган, 1996.

8. Абдумаликов Р., Холдоров Т. Туризм. – Тошкент, 1988.

9. Алиева М. Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришни иқтисодий жиҳатлари. – Тошкент: Фан, 2013.

10. Альмеев Р. В. Бухара – город музей. – Ташкент: Фан, 1999.

11. Аҳмадалиева Л. Наманган вилояти зиёратгоҳлари. – Наманган, 2015.

12. Балиқлиқўл Султон Увайс Қароний зиёратгоҳи // Мозийдан садо. – 2008. – №. – Б. 14–16.

13. Баҳромзода Ў. Чодак. – Наманган, 2000.

14. Бекмуродов А., Мадаминов А., Акрамов Ф. Фарғона область адабиёт музейи йўл кўрсаткич. – Тошкент, 1983.

15. Бернадский Г. М. Маршруты Ферганской долины. – М., 1972.

16. Бобобеков Р., Тўхтасинов И. Марғилон атласи. – Тошкент, 1978.

17. Жабборов А. Наманган вилояти ихчам маълумотлар тўплами. – Наманган, 2011.

18. Колбенцев А. По дорогам Узбекистана. – Ташкент, 1976.

19. Колбинценов Д. П. Сўлим оромгоҳлар бўйлаб. – Тошкент, 1974.

20. Мансуров М., Мадраҳимова М.. Мустақиллик йилларида Наманган вилоятида туризм тараққиётининг архив хужжатларида акс этиши / Фарғона водийсининг XVIII–XXI асрлардаги тарихини тадқиқ этишда ёзма, босма манбалар ва улардан фойдаланиш муаммолари. Халқаро илмий конференция. – Андижон, 2018.

21. Матбабаев Б., Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон, 1994.

22. Мирзаев А. Ўзбекистоннинг туристик имкониятларини географик баҳолаш / Таълим ва тарбия жараёнида модернизация илмий-услубий мақолалар тўплами. V сон. – Тошкент, 2005.

23. Нурматов М. Ш. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ва туризмнинг ривожлантиришнинг ижтимоий-географик хусусиятлари” (Фарғона минтақаси мисолида). – Тошкент: Фан, 2003.

24. Пославская С. Туристскими тропами Узбекистана (пути в природу) – Ташкент, 1985.

25. Рецек В. И. Ўрта Осиёни кезганда (Фарғона, Олой, Қоратегин, Ҳисор ва Кўхистон). – Тошкент, 1972.

26. Рazzoқов А. А. Халқаро туризм: Ўзбекистоннинг ўрни ва имкониятлари. Республика конференцияси материаллари. – Тошкент, 2005.